

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdugalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

THE ACTIVITY OF THE CATHOLIC CHURCH IN THE REGION DURING THE TIME OF AMIR TEMUR

Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li

independent researcher

Department of Social Sciences at Bukhara State Pedagogical Institute,

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor

E-mail: sardorkenjayev46@gmail.com

Abstract. This article scientifically substantiates ideas about the religious life in the region during the Middle Ages, specifically regarding the activities of Amir Temur and the Timurids, focusing on the activity of the Catholic Church during the time of Amir Temur.

Keywords: Catholic Church, religion, interreligious relations, Amir Temur, Timurids, geographic Orteliy, Lev X, Pope Clement VII.

AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI

Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası mustaqil izlanuvchisi

tarix fanlari falsafa doktori (PhD)., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta asrlar tarixida Amir Temur va temuriylar davrida mintaqada diniy hayot, katolik cherkovi faoliyatining Amir Temur davridagi faoliyati xususidagi fikrlar ilmiy jihatdan dalillangan.

Kalit so'zlar: katolik cherkovi, din, dinlararo munosabat, Amir Temur, temuriylar, geograf Orteliy, Lev X, papa Klement VII.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N02>

Kirish. Movarounnahr va Xuroson mintaqasida Marv xristianlari to'g'risidagi ma'lumotlar eng qadimgi hisoblanadi. Beruniy ma'lumotlari aytishicha, Marvda Iso Masih tug'ilganidan 200 yil o'tgach, ushbu din rohib Baraxiy tomonidan olib kirilgan. Arxeologik ma'lumotlar esa Marv shahri atrofida xristian ehromining III — IV asrlarda faoliyat ko'rsatgani haqida ma'lumot beradi. Markaziy Osiyo hududida arxeologik qazilmalar natijasida V — XIV asrlarga mansub deb topilgan ko'plab xristianlik yodgorliklari, jumladan ibodatxona va monastirlarning xarobalari, freskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar, Injil qissalari tasvirlangan keramikalar, bo'yinga osiladigan xoch va medallar hamda xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari, minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo'yilgan xochlar ahamiyatga e'tiborga loyiqdir. Taxminan XIV-asrda xristianlik dining ta'siri kamayishi natijasida pasayishni boshladi. Pasayish omillari orasida mintaqaga tarqalib, u yerda yashovchi xristian jamoalarining ko'p qismini o'ldirilib ketishiga asosiy omillar sifatida gan vabo kasalligiga chalinganligi tufayli bunday jamoalar kamayib keta boshladi. Boshqa ayrim bir

jamoalar nasroniylar, ehtimol, iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko'ra Islomni qabul qilganlar. Temuriylar davrida siyosiy vaziyat, ehtimol, qiynalayotgan jamoani yanada keskinlashtirgan.

Adabiyotlar sharhi. Amir Temur davrida mintaqada katolik cherkovi faoliyatiga oid bo'lgan manbalar, manbaviy ahamiyatga ega asarlar ilmiy jihatdan tahlillangan.

Metodologiya. Amir Temur davrida mintaqada katolik cherkovi faoliyati mavzusini ilmiy jihatdan tahlil qilish, pedagogik metodlar orqali talabalarga yetkazishda zamonaviy interfaol, multimedia, xronokross usullaridan foydalangan holda mavzuni yoritishdan iborat.

Muzokara. Amir Temur davrida mintaqada katolik cherkovi faoliyatida mavzusida manbaviy ahamiyatga ega asarlar tizimli tahlili qiyosiy jihatdan klassifikatsiya qilingan.

Natijalar. Mazkur mavzuda fikr bildirilgan tarixiy, dalillangan faktlar ilmiy jihatdan o'zining natijaviyligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Xabarlariga ko'ra, Samarqand va O'rta Osiyodagi oxirgi nasroniylar uning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan ta'qib qilingan. Biroq, ishonchli yozuvlar yo'qligi sababli, mintaqadagi suriyalik nasroniylarning kamayishi bilan bog'liq tafsilotlar qorong'iligicha qolmoqda. 1867-yilda ruslar hukmronligi davrida, rus va yevropalik ko'chmanchilar va zobitlarga xizmat qilish uchun yirik shaharlarda pravoslav cherkovlari qurilgani mintaqaga Xristianlik dinining qaytishiga asos bo'lgan. U (Amir Temur) nasroniylar uchun noqulay bir vaqtda Yevropa ustida paydo bo'ldi. Lotin cherkovida Buyuk parchalanish yuz berdi, shu davrda o'lat tarqalishi va bu kasallikning feodal o'rtasidagi nizolar bilan qorishib ketdi, darvozalari oldida usmonli turklar turgan sillasi qurigan Vizantiya saltanati o'z taqdirining nima bo'lishini itoatkorona kutardi. Shunga qaramay, Yevropa uchun umid chaqmoqlari chaqnadi. Sharqdan Usmonli turklar mulki tomon son-sanoqsiz suvoriy qo'shinlariga bosh bo'lib zakovat sohibi, mohir shaxmatchi, ilohiyotchi, malakali buyuk qo'mondon Amir Temur yaqinlashib kelardi. Binobarin, Amir Temur XV—XVI asrlarda Yevropada siyosiy doiralarda (katolik cherkovi va o'sha davrdagi eng qudratli mustabidlar orasida) mashhur bo'lgan, u haqda Piy II, 1513-yilda papa Lev X va papa Klement VII saroyiga kelgan Djovio, 1575-yilda ispan qiroli Filipp II ning xaritakashi bo'lgan geograf Orteliy, Karlning muarrixii Pedro Meksiyalilar yozishgan. Kichik Osiyoda bo'lgan vaqtda Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan olib borgan diplomatik yozishmalarida G'arb mamlakatlari bilan muntazam savdo aloqalari o'rnatish istagini bildiradi. Savdogarlarning diniy mansubligidan qat'i nazar, ularni savdo erkinligi bilan ta'minlash ikki tomondan qo'yilgan muhim shartlardan biri edi. Qirollarning xatlarida xristian savdogarlarning ham shaxsiy, ham savdo sohasidagi savdolari oshirish zarurligi uqtirib o'tilgan. Genrix IV dan kelgan maktubda Mirzo Mironshoh «Mirassa Amirassa» deb atalgan. Qirol Mironshohning katoliklarga bo'lgan do'stona va xayrixohlik munosabatlari va «ayniqsa diniy arboblarga va franko-katoliklarga lutfi karam baxsh etib, nasroniy savdogarlarning shaxsiy va faoliyat xavfsizligini ta'minlaganligi va barobariga savdo g'araziga xayrixohligi» uchun minnatdorchilik izhor etadi. Maktubda, «buyuk podshoh katolik dinining homiysi... bundan keyin ham bu qadar tavfiqli va saodatli niyatlardan voz kechmasligiga» umid bildiriladi, hamonki «janobi oliylari o'z xohishlari bilan xudoning shukri uchun davlat ishlariga taalluqli ba'zi masalalar xususida va shu vaqtdan boshlab sulh borasida biz bilan do'stona bitim tuzishga iroda etibdilar, janobi oliylari bilishni lozim topsinlarkim, biz ana shu bitimga bizning nomimizdan mazkur arxiyepiskop imzo chekishini astoydil istaymiz». Angliya qiroli arxiyepiskop Ioannga to'la ishonishini bildiradi: u inglizlarning ishlaridan yaxshi xabardor. Maktub bunday yakunlanadi: «Bizning iltimosimizga ko'ra ham, uning oliy martabasiga ko'ra ham (arxiyepiskopning) so'zlariga to'la ishonishingizni

so'raymiz, shuningdek unga bo'ysunganlarning hammasini va maxsus biriktirilgan yana necha shaxsni ham qabul qilishingizni so'raymiz, bizga hammasini aniq tavsif etingki, biz ham o'z tarafimizdan janoblarning istaklarini bajo keltirgaymiz» Maktub London shimolidagi Xortfordda fevral oyida, aniqlanishicha, 1402-yilda (maktubda yil ko'rsatilmagan) yozilgan. Genrix IV ning Amir Temurga maktubi Sohobqironning hozirgacha saqlangan maktubiga javoban yozilgan. Yuqoridagi holatlar Amir Temur va temuriylar davrida xalqaro munosabatlar va diplomatiyalari tarixida qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib borganligidan dalolat beradi. U shunday boshlanadi: «Genrix, xudoning marhamati bilan Angliya va Fransiya qiroli, shuningdek Irlandiya hokimi, buyuk va qudratli podshoh Temurbekka, Tangrini sevuvchi do'stga, hammasining xaloskoriga salom va tinchlik bo'lsin». Maktubda aytiladiki, Amir Temurning Angliya qiroliga mudom do'stlik munosabati (bu haqda u arxiyepiskop Ioannan biladi), qirol bunga arzimasa ham, Angliyada yuqori baholanadi. Amir Temurga buning uchun minnatdorchilik bildiriladi. Qiroli Amir Temur fuqarolari bilan Genrix fuqarolari o'rtasida erkin savdo munosabatlarini o'rnatish haqidagi taklifga rozilik bildiradi. U yana yozadi: «bundan keyin ham bizga va fuqarolarimizga mudom xayrixohligingiz bilan tasarrufingizdagi mulkingizga borsalar va sizning savdogarlaringiz ham bizning mulkimizga kelishsa, biz shuning tarafdorimiz». Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan kelib chiqqan xulosalarni Amir Temur saroyiga 1403-1406-yillarda kelgan Kastiliya (Ispaniya) qiroli Enrike III (1390-1407-yy)ning elchisi Rui Gonsales de Klavixo yozib qoldirgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Uning 1406-yilda o'z vatani – Ispaniyaga qaytgandan keyin chop etilgan “Samarqandga Temurbek saroyiga sayohat kundaligi” asarida Amir Temur davlatida xristian dinining yakovitlar, yunon katoliklari, nestorianlar, arman grigoryan cherkoviga e'tiqod qiluvchilarning tinch va osuda hayot kechirishlari bilan bog'liq ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Shuningdek, asarda xristianlikning Xitoy va Hindistonga qadar tarqalganligi va bu yerlardagi nasroniylarning ham Amir Temur saltanatiga bo'ysunishi haqida aytib o'tiladi[3;-130]. Amir Temur hukmronligi davrida barcha din vakillari ahillikda yashaganliklari, Temur qo'shinida turli e'tiqoddagi kishilar bo'lganligini o'sha davr tarixchilarining asarlaridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Jumladan, Ibn Arabshoh o'zining “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asarida: “Temur askarlari ichida butparast turklar, olovga sajda qiluvchi majusiy ajamlar, kohinlar-u sehrgarlar, zolimlar-u munkarlar bor edi. Butparastlar (o'z) sanamlarini ko'tarib yurar, kohinlar esa kalomlarini saj' bilan ifoda qilardilar. Ushbu ma'lumotlardan Amir Temur askarlari ichida turli din vakillari, jumladan, xristianlar ham mavjud bo'lganligini anglash qiyin emas. Albatta, Ibn Arabshoh Amir Temurga bo'lgan nafratini ham yashirib o'tirmaydi. Temuriylar davlatida xristianlikka alohida e'tibor mavjud bo'lganligini G'arb olamida Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh “xristian dinining homiysi” sifatida mashhur bo'lganligi fakti ham isbotlaydi. Amir Temur askarlari orasida xristianlarning bo'lganligini bejizga emas. Chunki, o'sha davrlarda papalar tomonidan jo'natilgan missionerlar ayrim ko'chmanchi hayot tarzida umrguzaronlik qiluvchi qabilalar orasida xristianlikni yoyishga muvaffaq bo'lgan edilar. O'sha davrda qandaydir Ioann Yelemozina ismli ruhoni tomonidan chop etilgan “Liber historiarum” asari bu haqda bizga qiziqarli ma'lumotlarni beradi[2; 96]. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Amir Temur hukmronligi davrida xristian dini Markaziy Osiyo, Eron mintaqalarida mavjud bo'lib, ularga nisbatan hech qanday diniy va siyosiy ta'qib olib borilmagan, deya xulosa chiqarish mumkin. Xristian dini ixlosmandlari Amir Temur saltanatida o'z e'tiqodlariga erkin sig'inishda davom etganlar. Ayrim G'arb olimlari ta'kidlaganlaridek, Amir Temurning

mutaassib musulmon bo'lmaganligi hamda uning diniy bag'rikenglik siyosatini olib borganligini imkon qadar yoritishga harakat qilindi. O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, bu davrda xristianlik dinining katolik mazhabi targ'iboti ham davom ettirilganligiga aslo shubha yo'q. Chunki, Amir Temur davlati o'z qudratining cho'qqisida bo'lgan 1393-yilda Urganchda katolik yeparxiyasi qayta tashkil etilgan edi. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o'z hukmronligi davrida saltanat hududidagi katolik, nestorian, monofizist, arman milliy cherkovi, zix (cherkas) cherkovi, yunon cherkovi, yakovitlar kabi xristian diniga e'tiqod qiluvchi ko'pdan-ko'p aholi tabaqalarini musulmonlar kabi erkin yashashlari, o'z dinlari va e'tiqodlariga erkin sig'inishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga harakat qilgan. Bu esa, uni diniy mutaassiblikda ayblagan ayrim mualliflar fikr mulohazalarning ochiq-oydin tuhmat ekanligini ko'rsatadi. Turli adabiyotlarga ko'ra, XIII-XIV asrlarda Amir Temur va temuriylar poytaxti vazifasini bajargan, o'z davrining yirik iqtisodiy, madaniy markazlaridan bo'lgan Samarqand shahrida katoliklarning missionerlik faoliyati natijasida vujudga kelgan avliyo Ioann cherkovi faoliyat ko'rsatgan. Bu ma'lumot Amir Temur davrida xristianlikning ta'qib ostiga olinmaganligini ko'rsatib beradi. Turli G'arb mualliflari kitoblarida tasvirlangan diniy ta'qib va Amir Temurning mutaassib musulmon bo'lganligi haqidagi fikrlar shunchaki uydirma bo'lgan, xolos. Amir Temur davlatida xristian dinining barcha mazhablari rivojlanganligi alohida xarakterlidir. Jumladan, bu davrda Kichik Osiyodagi yunon xristian cherkovi, monofizistlar, gruzin va zix (cherkaslar) cherkovi, mel'kitlar, Antioxiya va Iyerusalim patriarxlariga bo'ysunuvchilar, maronitlar, Salavkiya-Ktesifon cherkoviga bo'ysunuvchi nestorianlar, arman milliy cherkovi hamda yakovitlar o'z e'tiqodlariga bemalol amal qilib yashardilar. G'arb tarixchilari ta'kidlaganidek, Amir Temur yakovitlarni diniy ta'qib orqali jazolaganligi bilan bog'liq ma'lumotlar tarixiy manbalar orqali o'z tasdig'ini topgan emas. Ehtimol, XIV asrda Xorazmda bu mazhabning keng tarqalgani va Amir Temurning Xorazmga bir necha marotaba harbiy yurish uyushtirishi bu uydirmaning vujudga kelishiga sabab bo'lgandir. Ammo, mahalliy aholining katta qismi e'tiqod qilgan islom dinidagilar ham bu harbiy harakatlarda katta zarar ko'rgan bo'lishi tabiiy. Jan-Pol Ru ma'lumotlarida Amir Temurning harbiy harakatlar amalga oshirish jarayonida qisman gruzin va arman cherkovlariga zarar keltirganligi haqida aytib o'tiladi [5; 203-204].

Xulosa. Temur vafotidan so'ng yurtiga qaytgan tarixchi Ibn Arabshoh ma'lumotlari tasdiqlaydi. Ibn Arabshohning yozishicha: "Temur Chingizxon qoidalariga e'tiqodli bo'lib, (uning nazmida) ushbu qoidalar islom dinidagi fiqh furu'lari kabi edi. U Chingizxon qoidalaridan yurib, uni Muhammad shariatidan ustun tutar edi. Shuningdek, har bir chig'atoylik, Dasht, Xitoy va Turkiston ahli va o'sha avomlarning hammalari tangri la'natlagan Chingizxon qoidalarini islom qoidalaridan ustun qo'yardilar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bemalol ayta olamizki, mo'g'ullar istilosi davriga qadar ham yurtimizda va boshqa Sharq elatlari orasida xristianlikka e'tiqod qiluvchilar soni anchagina edi. Mo'g'ullarning diniy e'tiqodda erkinlik berish siyosati esa barcha dinlar taraqqiyotiga yo'l ochadi. Bu davrda, ayniqsa, xristianlik dini va uning mazhablari erkin rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan. Ayrim mo'g'ul xonzodalari va xonlari ham xristianlikning katolik diniga o'tib, uning targ'ibotiga homiylik qiladilar. Ayni paytda, ko'pgina mo'g'ul hukmdorlarining islomdan boshqa dinlarni rag'batlantirishi musulmon tarixiy adabiyotlarida ularning islom diniga zug'um qiluvchi, ta'qib o'tkazuvchilar sifatida baholanishiga ham sabab bo'lgan edi. Mo'g'ullar istilosi davrida, shuningdek, shomonlik (qam), buddaviylik, yahudiylik va boshqa dinlarning rivojlanishi va o'z

muxlislarining erkin e'tiqod qilishlari uchun keng imkoniyat yaratildi. Turk-mo'g'ul an'analari mahalliy o'troq an'analar bilan qorishib ketdi. Keyingi davrlarda bu an'analar ta'sirining islom dini mafkurasi bilan qo'shilib borishi kuzatiladi. Bu esa shomonlik e'tiqodi qoldiqlarining bugungi kunga qadar yashab qolishini ta'minlab bergan. Yana ta'kidlash lozimki, Sohibqiron Amir Temur saltanati hududida xristianlik dinining turli mazhab va oqimlariga e'tiqod qiluvchilar tinch hayot kechirib, ular uchun e'tiqod erkinligi ta'minlab berildi. Bu esa ayrim G'arb mualliflari tomonidan Amir Temurga nisbatan islom dinining fanati sifatida qaralishi mutlaqo tuhmat ekanligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, mo'g'ullar hukmronligi va Amir Temur saltanati mavjud bo'lib turgan davrlarda xristianlik, buddaviylik, yahudiylik va boshqa din vakillari yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida o'ziga xos mavqega ega bo'lganlar. Chingizxon davridan boshlab amalga oshirilgan diniy bag'rikenglik siyosatini dastlab mo'g'ul hukmdorlari, so'ngra Amir Temur va temuriylar davom ettirganliklari ushbu davlatlarda markaziy hokimiyat qudrati kuchayishining asosiy omillaridan biri edi. Biz esa Chingizxon va Amir Temurning diniy bag'rikenglik siyosati davlatning mustahkamligi kafolati bo'lganligini inobatga olgan holda bu siyosat ularning ulug'vorlik sifatlaridan biri ekanligini bimalol e'tirof eta olamiz.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Клавихо, Руи Гонсалес де. Буюк Амир Темур тарихи (1403-1406); Тарж., У. Жўраев // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида / Масъул муҳаррир А. Х. Саидов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 130.
2. Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Араб тилидан таржима ва изоҳларни, сўз бошини У. Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А. Ўринбоев. К. 2. – Т.: Меҳнат, 1992. – Б. 96.
3. Приходко Г. История христианства в Казахстане и Средней Азии в средние века (URL: catholic-kazakhstan.org/hist/3.html). С. 145.
4. Религии, распространенные www.orexca.com/rus/religia.shtml.
5. Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 203-204.
6. <https://uz.wikipedia>
7. <https://eurasianet.org/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).